

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

NUTQIY AKT VA BILVOSITA NUTQIY AKT TUSHUNCHALARINING PRAGMALINGVISTIK TALQINI

Nazarova Lobar Shuxratovna

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, o'qituvchi.

e-mail: lobar4884@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0008-5617-409X>

Annotatsiya.

Maqolada nutqiy akt va bilvosita nutqiy akt tushunchalari grammatik shakl, illokutiv maqsad hamda muloqot sharoiti o'rtasidagi munosabat nuqtayi nazaridan talqin qilinadi. Tadqiqotning maqsadi bilvositalikni aniqlash mezonlarini tizimlashtirish va ularni inglizcha–o'zbekcha modellar yordamida izohlashdan iborat. Tadqiqotda konseptual tahlil, nazariy sintez va kontekstual modellashirish usullaridan foydalanilgan. Natijada nutqiy aktning uch tahliliy qatlami farqlanadi, bilvosita nutqiy aktning ishchi ta'rifi aniqlashtiriladi hamda grammatik shakldan kontekstual maqsadga o'tishni tekshirish tartibi taklif etiladi. Bilvositalikni presuppozitsiya, implikatura va xushmuomalalik bilan aynanlashtirmaslik zarurligi asoslanadi. Tinglovchining kommunikativ maqsadni tushunishi so'ralgan harakatni bajarishidan farqlanadi. Keltirilgan misollar nazariy farqlarni namoyish etuvchi mualliflik modellari sifatida xizmat qiladi. Xulosalar grammatik-pragmatik tahlilda shakl, vaziyat, muqobil talqin va nutqiy javob dalillarini birgalikda hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: nutqiy akt, bilvosita nutqiy akt, pragmalingvistika, illokutiv kuch, grammatik shakl, kontekst, presuppozitsiya, implikatura, xushmuomalalik, nutqiy javob.

ПРАГМАЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПОНЯТИЙ РЕЧЕВОГО АКТА И КОСВЕННОГО РЕЧЕВОГО АКТА

Назарова Лобар Шухратовна

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека, преподаватель.

Аннотация.

В статье понятия речевого акта и косвенного речевого акта рассматриваются с точки зрения соотношения грамматической формы, иллокутивной цели и условий коммуникации. Цель исследования заключается в систематизации критериев определения косвенности и их интерпретации с помощью англо-узбекских моделей. В исследовании применяются методы концептуального анализа, теоретического синтеза и контекстуального моделирования. В результате выделяются три аналитических уровня речевого акта, уточняется рабочее определение косвенного речевого акта и предлагается порядок анализа перехода от грамматической формы к контекстуальной цели. Обосновывается необходимость разграничения косвенности, пресуппозиции, импликатуры и вежливости. Понимание слушателем коммуникативной цели отделяется от выполнения запрашиваемого действия. Приведённые примеры представляют собой авторские модели, демонстрирующие теоретические различия. Результаты исследования показывают необходимость комплексного учёта грамматической формы, коммуникативной ситуации, альтернативных интерпретаций и речевой реакции при грамматико-прагматическом анализе.

Ключевые слова: речевой акт, косвенный речевой акт, прагмалингвистика, иллокутивная сила, грамматическая форма, контекст, пресуппозиция, импликатура, вежливость, речевая реакция.

PRAGMALINGUISTIC INTERPRETATION OF THE CONCEPTS OF SPEECH ACT AND INDIRECT SPEECH ACT

Nazarova Lobar Shuxratovna

Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan, Lecturer.

Abstract.

The article examines the concepts of speech act and indirect speech act in terms of the relationship between grammatical form, illocutionary purpose, and communicative context. The study aims to systematize the criteria for identifying indirectness and to explain them through English–Uzbek models. The research employs conceptual analysis, theoretical synthesis, and contextual modeling. As a result, three analytical levels of the speech act are distinguished, a working definition of the indirect speech act is refined, and a procedure for examining the transition from grammatical form to contextual purpose is

proposed. The study substantiates the need to distinguish indirectness from presupposition, implicature, and politeness. The listener's understanding of the communicative intention is differentiated from the actual performance of the requested action. The examples provided are author-developed models designed to illustrate theoretical distinctions. The findings demonstrate the necessity of jointly considering grammatical form, communicative situation, alternative interpretations, and verbal responses in grammatical-pragmatic analysis.

Keywords: speech act, indirect speech act, pragmalinguistics, illocutionary force, grammatical form, context, presupposition, implicature, politeness, verbal response.

Kirish. Til birliklarining grammatik tuzilishini bilish har bir nutqiy vaziyatda so'zlovchining maqsadini anglash uchun yetarli emas. So'roq shaklidagi gap ma'lumot so'rashdan tashqari iltimosni, darak gap esa xabar bilan birga ogohlantirish yoki rad etishni ifodalashi mumkin. Bunda gapning shakli xususiyati yo'qolmaydi, ammo uning muayyan muloqotdagi vazifasi grammatik tavsif bilan cheklanmaydi. Nutqiy aktlar nazariyasi aynan til vositasida bajariladigan harakatni tahlil markaziga olib chiqadi [1; 2].

J. L. Ostin nutqni faqat voqelik haqida hukm bildirish sifatida tushunishning cheklanganligini ko'rsatadi. Uning yondashuvida aytish, aytish orqali muayyan amalni bajarish va aytish natijasida ta'sir yuzaga keltirish o'zaro farqlanadi [1]. J. R. Searl ushbu qarashlarni nutqiy aktning bajarilish shartlari, propozitsional mazmuni va illokutiv kuchi orqali rivojlantiradi [2]. Bilvosita akt masalasida esa bir illokutiv akt boshqa illokutiv akt vositasida bajarish imkoniyatini muhokama qiladi [3]. Demak, bilvositalik oddiygina «boshqa narsani nazarda tutish» emas, nutqiy harakatning qanday amalga oshirilishi bilan bog'liq hodisadir.

H. P. Graysning muloqotdagi hamkorlik va implikatura haqidagi qarashlari aytilgan mazmundan qo'shimcha ma'noga o'tish mexanizmini tushuntirishga xizmat qiladi [4]. P. Braun va S. Levinson bilvosita ifodani suhbatdoshning ijtimoiy qiyofasi, erkinligi va munosabatlarni boshqarish bilan bog'liq holda tahlil qiladi [7]. Biroq ushbu yo'nalishlarning tushuntirish obyektlari aynan bir xil emas: nutqiy akt nazariyasi bajarilayotgan harakatni, implikatura nazariyasi ma'no chiqarishni, xushmuomalalik yondashuvi esa ifodaning munosabatlarga ta'sirini yoritadi. Ularni birlashtirish tushunchalar o'rtasidagi farqni saqlashni talab etadi.

O'zbek tilidagi pragmatik tadqiqot uchun Sh. Safarovning til, nutqiy faoliyat va kontekst munosabatlariga bag'ishlangan qarashlari muhim nazariy tayanchdir [11]. Inglizcha va o'zbekcha birliklarni tahlil qilishda umumiy pragmatik mexanizmni milliy tilning grammatik ifoda imkoniyatlaridan ajratib ko'rsatish zarur. Masalan, bir xil taklif maqsadi ikki tilda aynan bir xil gap turi orqali ifodalanishi shart emas. Aksincha, tashqi shakl o'xshash birliklar turli vaziyatlarda turlicha nutqiy harakatni yuzaga chiqarishi mumkin.

Maqolaning maqsadi nutqiy akt va bilvosita nutqiy akt tushunchalarini o'zaro chegaralash, bilvositalikning grammatik-pragmatik mezonlarini aniqlashtirish hamda izchil talqin tartibini taklif etishdir. Asosiy savol quyidagicha qo'yiladi: gapning lug'aviy-grammatik mazmunidan farqlanuvchi illokutiv maqsad qaysi dalillar asosida bilvosita nutqiy akt sifatida izohlanadi? Ushbu savol doirasida kontekst va umumiy bilimning vazifasi, presuppozitsiya hamda implikaturaning farqi, xushmuomalalik va tinglovchi javobining maqomi ko'rib chiqiladi.

METODLAR

Tadqiqot nazariy-konseptual xususiyatga ega. Uning manbaviy asosini nutqiy aktlar, bilvosita ifoda, implikatura, xushmuomalalik va o'zaro nutqiy faoliyatga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlar tashkil etadi [1–16]. Manbalar tushunchalarning shakllanishidagi o'rni va tadqiqot savoliga bevosita aloqadorligi asosida tanlanadi. Bu yondashuv barcha nashrlarni qamrab oluvchi tizimli adabiyotlar sharhi emas; u tayanch nazariyalarni maqsadli ravishda o'zaro bog'laydigan tahliliy sintezdir.

Konseptual tahlilda lokutsiya, illokutsiya, perlokutsiya, bilvositalik, presuppozitsiya va implikaturaning mazmuni chegaralanadi. Qiyosiy talqinda turli nazariyalarning bir hodisani izohlash imkoniyatlari va cheklanishlari aniqlanadi. Kontekstual modellashirishda esa bitta gapning lug'aviy-grammatik tarkibi saqlanib, vaziyat yoki oldingi nutqiy navbat o'zgartiriladi. Muqobil talqin usuli dastlabki taxminga mos kelmaydigan izohlarni ham hisobga olishni nazarda tutadi.

Tahlil materiali sifatida oltita inglizcha-o'zbekcha misol juftligi qo'llanadi. Ular muallif tomonidan nazariy tushuntirish uchun tuzilgan bo'lib, tabiiy suhbatdan olingan iqtiboslar emas. Juftliklar barcha hollarda so'zma-so'z tarjima sifatida emas, yaqin nutqiy vazifalarni qiyoslash vositasi sifatida beriladi. Misollar soni statistik tanlanmani anglatmaydi; ular asosida ikki tildagi qo'llanish chastotasi yoki madaniy ustunlik haqida xulosa chiqarilmaydi.

Har bir misolda grammatik shakl, lug'aviy-grammatik mazmun, vaziyat ishorasi, taxmin qilinayotgan illokutiv maqsad va muqobil izoh ajratiladi. Tinglovchi javobi berilganda uning talqinni qo'llab-quvvatlashi yoki zaiflashtirishi tekshiriladi. Darak, so'roq va buyruq gapning shakli-kommunikativ turlari sifatida, shart, inkor va modallik esa ushbu turlar bilan birikishi mumkin bo'lgan belgilar sifatida olinadi. Ularni bir-birini istisno qiluvchi yagona tasnif qatoriga joylashtirmaslik tahlilning mantiqiy izchilligini ta'minlaydi.

NATIJALAR

Nutqiy aktning tahliliy qatlamlari. Nazariy sintez natijasida nutqiy hodisani uch bog'liq, biroq aynanlashmaydigan qatlamda tavsiflash zarurligi kelib chiqadi. Lokutiv qatlamda mazmunli lisoniy ifoda hosil qilinadi; illokutiv qatlamda shu ifoda bilan xabar berish, so'rash, va'da qilish yoki ogohlantirish kabi amal bajariladi; perlokutiv qatlamda esa tinglovchining fikri, hissiy holati yoki xatti-harakatida yuzaga kelgan ta'sir ko'rib chiqiladi [1]. Bu qatlamlar nutqning uchta ketma-ket jumlasini emas, bitta nutqiy hodisani turli tahliliy jihatlaridir.

Illokutiv maqsad va natijaviy ta'sirni farqlash muhimdir. Ogohlantirish tushunilgan holda unga amal qilinmasligi,

iltimos esa to'g'ri anglanib, rad etilishi mumkin. Shuning uchun tinglovchining so'ralgan ishni bajarmagani illokutiv maqsad mavjud bo'lmaganini bildirmaydi. Nutqiy aktning anglanishi bilan ta'sirning yuzaga kelishi alohida tekshiriladi. Syorlning assertiv, direktiv, komissiv, ekspressiv va deklaratsiya aktlariga oid tasnifi ham gaplarning grammatik turlarini emas, illokutiv farqlarni ifodalaydi [5]. Masalan, so'roq shaklini direktiv akt bilan qiyoslashda aynan turli tahlil sathlari o'zaro bog'lanadi.

Bilvosita nutqiy aktning ishchi ta'rifi. Mazkur maqolada bilvosita nutqiy akt deganda ifodaning lug'aviy-grammatik mazmuni va undan anglashiladigan dastlabki nutqiy amal vositasida, muayyan kontekst hamda umumiy bilimga tayanib, boshqa bir asosiy illokutiv maqsadning bajarilishi tushuniladi. Bu ta'rif Syorlning bir akti boshqa akt orqali bajarish haqidagi yondashuviga asoslanadi [3]. Biroq tahlilda barcha bilvosita ifodalarning anglanishi majburiy ravishda ikkita ongli bosqichda kechadi, degan psixologik xulosa chiqarilmaydi. Odatlashgan birlik tez va yaxlit anglanishi ham mumkin; izohlash modeli anglash tezligining o'lchovi emas [6].

Bevositalik esa grammatika bilan maqsad o'rtasidagi mutlaq, kontekstdan xoli tenglik emas. Masalan, buyruq maylidagi ifoda iltimos yoki buyruq sifatida baholanishi uchun ohang va munosabatlar ham e'tiborga olinadi. Shunga qaramay, «Derazani yoping» jumlasida harakatga undash shaklan ochiq, «Derazani yopa olasizmi?» jumlasida esa qobiliyat yoki imkoniyat haqidagi savol orqali yuzaga chiqishi mumkin. Demak, bilvositalikni belgilashda asosiy mezon shunchaki grammatik nomlarning farqi emas, ifodalangan mazmun bilan kontekstda bajarilayotgan amal o'rtasidagi vositali bog'lanishdir.

So'roq shakli orqali iltimos. Birinchi juftlik: *Can you close the window? — Derazani yopa olasizmi?* Derazadan sovuq havo kirayotgan, tinglovchi esa uning yonida turgan vaziyatda bu gap derazani yopishga qaratilgan iltimos bo'lishi mumkin. Lug'aviy-grammatik mazmunda harakatni bajarish imkoniyati so'raladi, asosiy illokutiv maqsad esa harakatning amalga oshirilishidir. Biroq ayni jumla jismoniy tiklanish mashg'ulotida bemorning imkoniyatini baholash uchun aytilsa, haqiqiy savol sifatida tushunilishi mumkin. Bir shaklning ikki vaziyatdagi farqi so'roq konstruksiyasini avtomatik tarzda bilvosita iltimos deb belgilash mumkin emasligini ko'rsatadi.

Mazkur holatda imkoniyat haqidagi mazmun iltimosning bajarilishiga daxldor shart bilan bog'lanadi. Tinglovchi harakatni bajara olishi kerakligi so'roq mazmuni bilan asosiy maqsad o'rtasida mazmuniy asos yaratadi [2; 3]. Biroq har qanday imkoniyat so'rog'i iltimos bo'lavermaydi. Dastlabki savolning muloqotdagi o'rni va suhbatdoshlarning vazifalari hisobga olinadi. «Ha, hozir yopaman» javobi iltimos talqinini qo'llab-quvvatlasa, «Ha, bu mashqni bajara olaman» javobi tekshiruv vaziyatidagi imkoniyat savoliga mos keladi.

Darak mazmunidan iltimos yoki shikoyatga o'tish. Ikkinchi juftlik: *The room is cold. — Xona sovuq.* Deraza ochiq bo'lgan va tinglovchi uni yopishi mumkin bo'lgan holatda jumla bilvosita iltimosga asos bo'lishi mumkin. Xizmat sifati muhokama qilinayotgan bo'lsa, ayni gap shikoyat sifatida, xona harorati so'ralgan bo'lsa esa oddiy xabar sifatida ishlatiladi. Tahlilchi vaziyatda bajarilishi kutilayotgan harakatni aniqlamasdan turib, «darak gap — bilvosita iltimos» formulasini qo'llamasligi kerak.

«Xona sovuq, lekin derazani yopmang» davomida derazani yopish haqidagi taxmin bekor qilinadi, xonaning sovuqligi haqidagi mazmun esa saqlanadi. Bu farq qo'shimcha talqinning gap mazmunidan mantiqan majburiy kelib chiqmasligini ko'rsatadi [4; 6]. Biroq bekor qilish imkoniyati yakka holda yetarli diagnostika emas: davomning tabiiyligi, ohang va oldingi suhbat ham baholanishi kerak. Aks holda tadqiqotchi real nutqiy maqsadni aniqlash o'rniga o'zi tasavvur qilgan vaziyatni matnga yuklab qo'yishi mumkin.

Nutqiy ketma-ketlikda rad etish. Uchinchi juftlik: *I have an early class tomorrow. — Ertaga darsim erta boshlanadi.* Kechki uchrashuvga taklifga javoban aytilganda bu jumla qatnasha olmaslikning sababi orqali rad etishni ifodalashi mumkin. Ertangi jadval haqida savolga javob bo'lsa, u axborot berish vazifasini bajaradi. Birinchi vaziyatdagi rad etish ma'nosi faqat jumlaning ichki tuzilishidan emas, uning taklifdan keyingi o'rnidan ham kelib chiqadi. O'zaro nutqiy faoliyatni tahlil qilishda oldingi va keyingi navbatlarning ahamiyati shu bilan izohlanadi [15; 16].

Bunday jumla har doim qat'iy rad javobi bo'lishi ham shart emas. «Unda ertaroq uchrashamiz» javobi taklif shartlarini o'zgartirish imkoniyatini ochadi. Shuning uchun dastlabki ifodani rad etish, ikkilanish yoki vaqt bo'yicha cheklov sifatida baholash keyingi nutqiy rivojlanish bilan aniqlashtiriladi. Bilvosita akti faqat tadqiqotchining niyat haqidagi taxmini orqali belgilash o'rniga, suhbatdoshlar ifodani qanday qabul qilayotganini ham tekshirish talab etiladi.

Taklif, eslatish va ogohlantirish modellari. To'rtinchi juftlik: *Why don't we take a short break? — Bir oz tanaffus qilsak-chi?* Vaziyat suhbatdoshlarning birgalikdagi ishiga taalluqli bo'lganda, ikkala birlik taklif sifatida talqin qilinishi mumkin. Inglizcha misolda inkorli so'roq, o'zbekcha misolda esa shart shakli va «-chi» yuklamasi qatnashadi. Ular bir xil grammatik konstruksiya emas, muayyan sharoitda yaqin vazifani bajaruvchi ifodalardir. Shu bois funksional o'xshashlik grammatik aynanlikni, bitta model esa umumtil miqyosidagi tipologik qonuniyatni anglatmaydi.

Beshinchi juftlik: *You haven't sent the report yet. — Hisobotni hali yubormadingiz.* Topshiriq muddati yaqinlashgan vaziyatda gap eslatish bilan birga hisobotni yuborishga undashi mumkin. Bajarilgan ishlar qayd etilayotgan sharoitda esa u holat haqidagi xabardir. Oltinchi juftlik: *There is broken glass on the floor. — Polda siniq shisha bor.* Tinglovchi shu joyga yaqinlashayotgan bo'lsa, xabar ogohlantirish vazifasini olishi mumkin; xona holatini ro'yxatga olishda oddiy tavsif bo'lib qoladi. Har ikkala juftlikda nutqiy vazifani belgilash uchun mazmundan tashqari vaziyat dalili ham zarur.

Presuppozitsiya va implikaturani chegaralash. Presuppozitsiya nutqiy ifodada oldindan qabul qilingan fon taxmini, implikatura esa aytilgan mazmun va muloqot sharoitidan chiqariladigan qo'shimcha ma'no sifatida izohlanadi [4; 6]. «Ali chekishni tashladi» jumlasida uning oldin chekkanligi fon taxmini sifatida yuzaga chiqadi. «Xona sovuq» jumlasidan derazani yopish istagini anglash esa vaziyatga bog'liq pragmatik xulosadir. Demak, presuppozitsiya ham, implikatura ham bilvosita nutqiy aktning sinonimi emas.

Ushbu tushunchalarni farqlash tahlilning predmetini aniq saqlaydi. Har qanday qo'shimcha ma'no bilvosita nutqiy akt emas: bilvosita akt deb baholash uchun qanday kommunikativ amal bajarilayotgani ko'rsatilishi lozim. Shu bilan birga, fon taxmini suhbatdoshlar tomonidan bir xil qabul qilinmagan bo'lishi mumkin. «Xona sovuq» ifodasidan tinglovchi shunchaki noqulaylik haqidagi xabarni tushunsa, tahlilchi uni dalilsiz ravishda derazani yopish iltimosi deb qat'iy belgilay olmaydi. Umumiy bilim, dolzarb maqsad va vaziyatga mos xulosa chiqarish nazariyalari ushbu noaniqlikni tushuntirishga yordam beradi [9; 12].

Bilvosita talqinni tekshirish tartibi. Yuqoridagi farqlar asosida besh bosqichli tahlil tartibi taklif etiladi. Avval ifodaning grammatik shakli va lug'aviy-grammatik mazmuni tavsiflanadi. Keyin oldingi nutqiy navbat, vaziyat, ishtirokchilar munosabati va umumiy bilim belgilanadi. Uchinchi bosqichda ehtimoliy asosiy illokutiv maqsad hamda unga o'tishning mazmuniy asosi izohlanadi. To'rtinchida bevosita yoki boshqa bilvosita talqinlar tekshiriladi. Yakunda tinglovchi javobi mavjud bo'lsa, u bilan dastlabki talqinning muvofiqligi baholanadi. Dalil yetishmagan holat «noaniq» deb qoldiriladi; har bir misolni majburan bitta turga kiritish talab etilmaydi.

MUHOKAMA

Natijalar bilvositalikni grammatik shakldan pragmatik maqsadga oddiy almashtirish deb tushunish yetarli emasligini ko'rsatadi. Syorlning yondashuvi ifodadagi dastlabki mazmun bilan asosiy nutqiy amal o'rtasidagi munosabatni ochadi [3]. Grays modeli mazkur o'tishda kontekstual xulosaning rolini yoritadi [4]. Biroq bu qarashlardan har bir bilvosita akt hamkorlik tamoyilining buzilishi tufayli paydo bo'ladi, degan xulosa kelib chiqmaydi. Odatlashgan iltimos shakli tushunarli va vaziyatga to'liq mos bo'lishi mumkin. Demak, bilvositalik nutqning albatta g'ayrioddiy yoki hamkorlikka zid ekanini anglatmaydi.

Konvensional, ya'ni qo'llanishda odatlashgan bilvositalik bilan kuchli kontekstual ishoraga tayanuvchi bilvositalikni ajratish foydalidir. Imkoniyat haqidagi so'roq iltimos sifatida tanish bo'lishi mumkin, xonaning sovuqligi haqidagi darak esa ko'proq vaziyat yordamida talqin qilinadi [3; 6]. Ammo odatlashganlik haqidagi umumiy nazariy farq ushbu maqoladagi o'zbekcha modellar uchun qo'llanish chastotasi o'lchanganini bildirmaydi. Muayyan konstruksiyaning odatlashganlik darajasini aniqlash uchun tabiiy nutq materiallari va so'zlovchilarning baholari zarur.

Bilvositalik va xushmuomalalik ham bir-biriga teng tushunchalar emas. P. Braun va S. Levinson bilvosita strategiyalarni suhbatdoshga bosimni kamaytirish bilan bog'laydi [7]. G. Lich yondashuvida esa nutqiy harakatning munosabatlarga ta'siri kengroq pragmatik tamoyillar doirasida izohlanadi [13]. Sh. Blum-Kulkaning tadqiqoti bilvositalik darajasi bilan xushmuomalalik bahosi o'rtasidagi bog'lanish sodda chiziqli munosabat emasligini ko'rsatadi [8]. Juda noaniq ishora tushunishni qiyinlashtirishi, vaziyatga mos ochiq iltimos esa odobli qabul qilinishi mumkin. Shuning uchun grammatik bilvositalik odoblilikning avtomatik o'lchovi bo'la olmaydi.

Ijtimoiy maqom, muloqot masofasi va yuklanayotgan vazifa talqinning qo'shimcha shartlaridir. Rahbarning «Hisobotni hali yubormadingiz» jumlasida xodimga talab sifatida anglashilishi mumkin; teng maqomdagi hamkasblar orasida esa oddiy aniqlashtirish bo'lishi ehtimoli mavjud. Lekin maqomning o'zi ham har bir ifodani buyruqqa aylantirmaydi. Voqeaning mazmuni, ish tartibi, oldingi kelishuv va ohang birgalikda hisobga olinadi [7; 10]. Xuddi shuningdek, tillararo qiyosda inglizcha birlikni «xushmuomala», o'zbekcha birlikni «qat'iy» deb umumlashtirish uchun tanlangan misollarning o'zi yetarli emas. Bunday qiyos tegishli vaziyatlar tenglashtirilgan materialni talab etadi [14].

Tinglovchi javobining nazariy maqomi alohida e'tiborga loyiq. «Hozir yopa olmayman» javobi so'rovning anglanganini ko'rsatishi mumkin, garchi deraza yopilmasa ham. «Derazani yopishimni so'rayapsizmi?» savoli esa tinglovchi taxminiy maqsadni aniqlashtirayotganidan dalolat beradi. Bunday javoblar illokutiv talqinning o'zaro muvofiqlashtirilishini ochadi [15; 16]. Shunga qaramay, javob mutlaq isbot emas: suhbatdosh ataylab lug'aviy ma'noga javob qaytarishi yoki vaziyatni noto'g'ri anglashi mumkin. Shu bois javob dalili oldingi nutq va vaziyatdan ajratilmaydi, harakatning bajarilishi bilan ham aynanlashtirilmaydi.

Tadqiqotning asosiy cheklovi modellashtirilgan misollardan foydalanilganidir. Ular tushunchalarni farqlashga xizmat qiladi, biroq bilvosita aktlarning tarqalishi, anglanish tezligi yoki muayyan ijtimoiy guruhdagi bahosini belgilamaydi. Taklif etilgan tartibni empirik tekshirishda tabiiy dialoglar, vaziyat tavsifi va bir nechta mustaqil tahlilchining belgilashlari zarur bo'ladi. Kelishilmagan misollarni yashirish emas, ularning noaniqlik sabablarini ko'rsatish muhimdir.

XULOSA

Nutqiy akt til vositasida bajariladigan kommunikativ harakat bo'lib, uning tahlilida ifodalangan mazmun, illokutiv maqsad va natijaviy ta'sir farqlanadi. Bilvosita nutqiy akt esa dastlabki mazmun yoki nutqiy amal vositasida boshqa asosiy maqsadning kontekstual amalga oshirilishini anglatadi. Uni aniqlashda grammatik shakl zarur dalil bo'lsa-da, yakka o'zi yetarli mezon emas. Ifodaning suhbatdagi o'rni, ishtirokchilarning umumiy bilimi va muqobil talqinlar birgalikda tekshiriladi.

Nazariy sintez bilvositalikni presuppozitsiya, implikatura va xushmuomalalik bilan aynanlashtirmaslik zarurligini ko'rsatadi. Presuppozitsiya fon taxminiga, implikatura qo'shimcha ma'no chiqarishga, xushmuomalalik esa munosabatlarni boshqarish va baholashga taalluqlidir. Tinglovchining maqsadni anglashi bilan so'ralgan ishni bajarishi ham alohida hodisalardir.

Inglizcha va o'zbekcha modellar yaqin illokutiv vazifaning turli grammatik vositalar bilan ifodalanishi hamda bir xil ifodaning kontekstga qarab turlicha talqin qilinishini namoyish etadi. Taklif etilgan tahlil tartibi shakliiy tavsifdan boshlanib, vaziyatni aniqlash, asosiy maqsadni izohlash, muqobil talqinlarni tekshirish va javob dalilini baholash bilan davom etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Austin J. L. *How to Do Things with Words*. – Oxford: Clarendon Press, 1962. – VII, 166 p. – URL: <https://search.worldcat.org/title/how-to-do-things-with-words/oclc/644461811>
2. Searle J. R. *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969. – 214 p.
<https://www.cambridge.org/core/books/speech-acts/D2D7B03E472C8A390ED60B86E08640E7>
3. Searle J. R. *Indirect Speech Acts // Syntax and Semantics. Vol. 3: Speech Acts* / ed. by P. Cole, J. L. Morgan. – New York: Academic Press, 1975. – P. 59–82. – URL: <https://cir.nii.ac.jp/crid/1573387449300996864>
4. Grice H. P. *Logic and Conversation // Syntax and Semantics. Vol. 3: Speech Acts* / ed. by P. Cole, J. L. Morgan. – New York: Academic Press, 1975. – P. 41–58. – URL: <https://web.stanford.edu/class/psych205/papers/Grice-1975.pdf>
5. Searle J. R. *A Classification of Illocutionary Acts // Language in Society*. – 1976. – Vol. 5, No. 1. – P. 1–23. – DOI: 10.1017/S0047404500006837. – URL: <https://www.cambridge.org/core/journals/language-in-society/article/abs/classification-of-illocutionary-acts1/C51AB2FEB1BFD115FE9B066A8669789D>
6. Levinson S. C. *Pragmatics*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – URL: <https://www.cambridge.org/highereducation/books/pragmatics/6D0011901AE9E92CBC1F5F21D7C598C3>
7. Brown P., Levinson S. C. *Politeness: Some Universals in Language Usage*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – XIII, 345 p. – URL: <https://www.cambridge.org/highereducation/books/politeness/89113EE2FB4A1D254D4A8D2011E542E4>
8. Blum-Kulka S. *Indirectness and Politeness in Requests: Same or Different? // Journal of Pragmatics*. – 1987. – Vol. 11, No. 2. – P. 131–146. – DOI: 10.1016/0378-2166(87)90192-5. – URL: [https://doi.org/10.1016/0378-2166\(87\)90192-5](https://doi.org/10.1016/0378-2166(87)90192-5)
9. Sperber D., Wilson D. *Relevance: Communication and Cognition*. – 2nd ed. – Oxford: Blackwell, 1995. – 338 p. – ISBN 978-0-631-19878-9. – URL: https://www.wiley-vch.de/en?isbn=9780631198789&option=com_eshop&title=Relevance&view=product
10. Thomas J. *Meaning in Interaction: An Introduction to Pragmatics*. – London: Longman, 1995. – 240 p. – ISBN 978-0-582-29151-5. – URL: <https://www.routledge.com/Meaning-in-Interaction-An-Introduction-to-Pragmatics/Thomas/p/book/9780582291515>
11. Safarov Sh. *Pragmalingvistika*. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008. – URL: <https://www.scribd.com/document/575012809/Pragmalingvistika-Sh-safarov>
12. Bach K., Harnish R. M. *Linguistic Communication and Speech Acts*. – Cambridge, MA: MIT Press, 1979. – 327 p. – ISBN 978-0-262-02136-4. – URL: <https://mitpress.mit.edu/9780262021364/linguistic-communication-and-speech-acts/>
13. Leech G. N. *Principles of Pragmatics*. – London: Longman, 1983. – URL: <https://www.routledge.com/link/link/p/book/9781138142251>
14. Blum-Kulka S., House J., Kasper G. (eds.). *Cross-Cultural Pragmatics: Requests and Apologies*. – Norwood, NJ: Ablex Publishing Corporation, 1989. – 300 p. – ISBN 978-0-89391-513-6. – URL: https://books.google.com/books/about/Cross_cultural_Pragmatics.html?id=vYZrAAAAIAAJ
15. Clark H. H. *Using Language*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1996. – 446 p. – DOI: 10.1017/CBO9780511620539. – URL: <https://www.cambridge.org/core/books/using-language/4E7EBC4EC742C26436F6CF187C43F239>
16. Schegloff E. A. *Sequence Organization in Interaction: A Primer in Conversation Analysis I*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2007. – 316 p. – DOI: 10.1017/CBO9780511791208. – URL: <https://www.cambridge.org/core/books/sequence-organization-in-interaction/276CD30E23D3444114A90E5E2B24D55F>